


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti
direktori birinchi o'rinnbosari


R.Xursanov
2025-yil 23 -iyun

"KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH VA
MANFAATLAR TO'QNASHUVINI BOSHQARISH"
o'quv kursi bo'yicha
O'QUV DASTURI
(qisqa muddatli o'quv kursi)

2025-yil

I. TASHKILIY-USLUBIY BO'LIM

1.1. Kursning maqsadi

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2024-yil 26-sentabrdagi 319-um-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 2024-2025-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ijrosini ta'minlash yuzasidan nazorat-rejaning 42-bandji ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Dastur Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyliги" doirasida ishlab chiqilgan.

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdag'i "**O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi 171-ton qarori talablariga mos keladi.

1.2. Kutilayotgan natijalar

Tinglovchilar:

- korrupsiya tushunchasi, uning turlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarning mazmun-mohiyatini anglaydi;
- korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilikdagi yangiliklardan xabardor bo'ladi;
- tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati bo'yicha bilimlari chuqurlashadi;
- odob-axloq qoidalari va ularga rioya qolmaslikning oqibatlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi;
- manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning huquqiy asoslari, tartibi haqida nazariy bilimlarini rivojlantiradi;
- korrupsiyaga moyil bo'lgan shaxsning psixologik xususiyatlari bo'yicha tasavvurga ega bo'ladi;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik haqida xabardor bo'ladi.

1.3. O'qitish shakli

ishdan ajralgan yoki ishdan ajralmagan holda.

1.4. Tinglovchilar kontingenti

Davlat organlari va tashkilotlari.

II. O'QUV KURSINING MAVZULAR REJASI

2.1. O'quv kursining umumiyligi va o'quv ishlari turi bo'yicha hajmi:

O'quv kursini o'rGANISH uchun – 6 soat ajratilgan.

Auditoriya mashg'ulotlari: ma'ruza – 2 soat, seminar – 4 soat.

2.2. O'quv kursining mavzular rejasi

T/r	Mavzular nomi	Mashg'ulotlarga ajratilgan soatlar		
		Ma'ruza	Seminar	Jami
1	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati va uning amalga oshirilish mexanizmi	2	–	2
2	Xodimlarning odob-axloq qoidalari va ularga rioya qilmaslik oqibatlari	–	2	2

3	Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish va mazkur sohaga oid qonunchilikni buzish uchun javobgarlik	-	2	2
	Jami:	2	4	6

III. O‘QUV MATERIALINING MAZMUNI

1-mavzu. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati va uning amalga oshirilish mexanizmi

Asosiy masalalar: Korrupsiya tushunchasi, uning turlari. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda va jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish yo‘nalishlari. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir amalga oshirilgan chora-tadbirlar. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklar uchun javobgarlik.

2-mavzu. Xodimlarining odob-axloq qoidalari va ularga riosa qolmaslik oqibatlari

Asosiy masalalar: Tashkilot xodimlarining odob-axloqi qoidalaringin huquqiy asoslari. Tashkilot xodimlarining o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda riosa qilishlari shart bo‘lgan prinsiplar. Tashkilot xodimlarining kasbiy madaniyatiga oid odob-axloq qoidalari. Tashkilot xodimlarining xizmat faoliyatiga oid odob-axloq qoidalari. Tashkilot xodimlarining xizmatdan tashqari odob-axloq qoidalari. Tashkilot xodimlarining jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan munosabatlarga oid odob-axloq qoidalari. Tashkilot xodimlarining xizmat faoliyatidagi tashqi ko‘rinish va kiyinish uslubiga oid odob-axloq qoidalari. Odob-axloq qoidalariiga riosa etmaganlik uchun javobgarlik. Odob-axloq komissiyasining asosiy vazifalari va funksiyalari.

3-mavzu. Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish va mazkur sohaga oid qonunchilikni buzish uchun javobgarlik

Asosiy masalalar: Manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi va uni boshqarishning huquqiy asoslari. Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bulgan vaziyatlar. Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarishning tamoyillari. Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish (oshkor qilish)ga oid xodimlarga qo‘yiladigan shartlar. Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashga doir tartibi. Manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish choralar. Ish yuzasidan sovg‘alar va mehmondo‘stlik belgilarini qabul qilishra oid talablar. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish uchun ma’muriy javobgarlik va uning asoslari.

IV. O‘QUV KURSINING O‘QUV-USLUBIY TA’MINOTI

4.1. Tavsiya etiladigan normativ-huquqiy hujjatlar

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O‘RQ-419-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi O‘RQ-931-son “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 829-son “Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldaggi PF-6257-son “Korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korruptsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son “Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-228-son “Aholi va davlat xizmatchilarining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzlusiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldaggi PQ-5177-son “Korruptsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PQ-147-son “Davlat organlari va tashkilotlarining korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga riosa etilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori

O‘zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining “Korruptsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qo‘sma qarori

O‘zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining “Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar va manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestining namunaviy shakllari to‘g‘risida”gi buyrug‘i

4.2. Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Adliya organlari va muassasalarida korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi: savollar va javoblar [Matn]: qo‘llanma/tuzuvchilar R.R.Shakurov, T.U.Safarov. – Toshkent: Baktriya press, 2022. – 48 b.

Korruptsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas’ul muharrir: A.Sh. Bekmurodov: – Toshkent: “Akademiya”, 2022. – 344 b.//

Izoh:

1. Malaka oshirish kurslarining aniq vaqtি va o'qitish shakllari (*ana'naviy, masofaviy-onlayn - zoom ilovasi orgali va buyurtmachi joylashgan binoda*) buyurtmachi tashkilot bilan kelishilgan holda belgilanadi.

2. Buyurtmachi tashkilotlar taqsimot-rejaga o'quv kursi muddati va xodimlar soni bo'yicha tegishli o'zgartirish kiritish huquqiga ega, bu to'g'risida o'quv mashg'ulotlari boshlanishdan kamida 5 kun oldin xabar berilishi kerak.

3. Malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarga belgilangan namunadagi sertifikat beriladi.